

# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

1-oktyabr- O'qituvchi va  
Murabbiylar kuni



**№9 - SON**

**2025-YIL, SENTYABR**

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621





### JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

### ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

[www.marketingjournal.uz](http://www.marketingjournal.uz)

ELEKTRON POCHTA:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

### MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

### JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

### INDEKSATSIYA



### BOSH MUHARRIR

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

### BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

**Yusupov Muxamadamin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

### TAHRIR HAY'ATI:

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

**Soliyev Axmadjon Soliyevich**, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

**Ikramov Murad Akramovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich**, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

**Zarova Elena Viktorovna**, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

**Akramov Tohir Abdirahmonovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Samadov Asqarjon Mishomovich**, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi**, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

**Sobirov Azizbek Avazbekovich**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

**Musyeva Shoiraa Azimovna**, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

**Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Djurabayev Otabek Djurabayevich**, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

**Karimova Shirin Zoxid qizi**, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich**, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

**Bobojonov Azizjon Babaxanovich**, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

**Allayarov Shamsiddin Amanullayevich**, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

**Jumaev Olimjon Sadulloevich**, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

**Eshov Mansur Po'latovich**, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich**, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

**Tuychiyev Alisher Jurayevich**, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani professor

**Nazarova Ra'no Rustamovna**, TDIU “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Usmonov Bunyod Aktam o'g'li**, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

**Dehqonov Burxon Rustamovich**, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

**Turobova Hulkar Rustamovna**, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

**Elektron nashr** 603 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-sentyabrda ruxsat etildi

# MUNDARIJA

<b>ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ .....</b>	<b>7</b>
<b>Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы</b>	
<b>KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASHGA QARATILGAN TA‘LIM XIZMATLARI KO‘RSATISH TURLARI TAHLILI .....</b>	<b>16</b>
<b>Ergashev To‘lqin Shokirovich</b>	
<b>ЭВОЛЮЦИЯ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....</b>	<b>23</b>
<b>Миришаев Абдурахман Абдулахатович</b>	
<b>E-COMMERCE DIFFERENCES BETWEEN DEVELOPING AND DEVELOPED COUNTRIES.....</b>	<b>33</b>
<b>Makhmudova Munisakhon Abbos qizi</b>	
<b>TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING MARKETING DASTURLARINI RAQAMLASHTIRISH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI .....</b>	<b>40</b>
<b>Ikramova Taxmina Latifovna</b>	
<b>MINTAQAVIY RESURLARNI BOSHQARISHDA MENEJMENT YONDASHUVLARI: INSTITUTSIONAL NAZARIYA VA IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....</b>	<b>50</b>
<b>Ismoilov Abdulxoliq Muxiddin o‘g‘li</b>	
<b>TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YETAKCHILIK MODELLARIDAN FOYDALANISH .....</b>	<b>60</b>
<b>Kazakov Olim Sabirovich</b>	
<b>TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI QABUL QILUVCHI MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIGA TA‘SIRI BO‘YICHA EKONOMETRIK DALILLAR: USLUBLARGA ASOSLANGAN SHARH .....</b>	<b>67</b>
<b>Madumarov Xusniddin Komilovich</b>	
<b>TO‘QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA‘MINLASHDA KORPORATIV MADANIYAT VA MARKETING STRATEGIYALARI UYG‘UNLIGI .....</b>	<b>78</b>
<b>Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna</b>	
<b>AHOLINING MODDIY FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI</b>	<b>84</b>
<b>Mirzamurodov Oltinbek Sultonali o‘g‘li</b>	
<b>SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN KICHIK BIZNESDA FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI .....</b>	<b>90</b>
<b>Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna</b>	
<b>CHAKANA SAVDODA ONLAYN KO‘RIB, OFLAYN XARID QIL (ROPO) MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI ANIQLASH.....</b>	<b>98</b>
<b>Rajapova Gulmira</b>	
<b>TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNING ROLI VA SAMARADORLIGI .....</b>	<b>105</b>
<b>Agzamova Marguba Mirabdullayevna</b>	
<b>RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISHLAB CHIQRISHNI AVTOMATLASHTIRISH, ERP VA CRM TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH .....</b>	<b>113</b>
<b>Uzakova Umida Ruziyevna</b>	
<b>FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES .....</b>	<b>122</b>
<b>Kurbanova Maftuna Lazizovna, Muhammad al-Khwarizmi</b>	
<b>LEVERAGING INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN RETAIL THROUGH DISTRIBUTED DATA AND KNOWLEDGE-BASED SYSTEMS .....</b>	<b>134</b>
<b>Karimova Nafisabonu Djamshidovna</b>	
<b>XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNI BAHOLASH BO‘YICHA USLUBIY YONDASHUVLAR....</b>	<b>145</b>
<b>Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich</b>	

<b>FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING REMOTE BANKING SERVICE .....</b>	<b>154</b>
<b>Abdovohidov Abdumalik Mahkamovich</b>	
<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOYIY OQIBATLARI TAHLILI .....</b>	<b>161</b>
<b>Xatamov Nurbek Ochildiyevich</b>	
<b>THE IMPACT OF GREEN BUSINESS EDUCATION AMONG ENTREPRENEURS ON THE ECONOMY: A LITERATURE REVIEW .....</b>	<b>172</b>
<b>Amonov Sardor Zamon o‘g‘li, Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
<b>ISTE‘MOLCHILARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING ROLI .....</b>	<b>188</b>
<b>Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi</b>	
<b>QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONALARNI BOSHQARISHNING XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....</b>	<b>196</b>
<b>Uzakova Umida Ruziyevna</b>	
<b>TEMIR YO‘L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....</b>	<b>203</b>
<b>Qilichev Umid Ibodullayevich</b>	
<b>UNIVERSITETNI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BENCHMARKING USULIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.....</b>	<b>210</b>
<b>Maxmudov Faxriddin Umarovich</b>	
<b>O‘ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHI TAHLILI .....</b>	<b>219</b>
<b>Usmanov Mirumar Abdulla o‘g‘li</b>	
<b>KIMYO SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....</b>	<b>228</b>
<b>Sabirov Oybek Shavkatbekovich</b>	
<b>QASHQADARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TOMONIDAN ISHLAB CHIQILGAN MAHSULOT HAJMINING PROGNOZLASH.....</b>	<b>237</b>
<b>Xudoyorov Laziz Niyozovich</b>	
<b>РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ.....</b>	<b>246</b>
<b>Азизов Ильдар Рафаэльевич</b>	
<b>TIJORAT BANKLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI RAQAMLI XIZMAT TURLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLARI.....</b>	<b>254</b>
<b>Foziljonova Mushtariybonu Farruxbek qizi</b>	
<b>KORXONALAR PUL OQIMLARI BOSHQARUVIDA PROGNOZ USULLARIDAN FOYDALANISH.....</b>	<b>263</b>
<b>Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li</b>	
<b>ELEKTRON SAVDO SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDAGI INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING O‘RNI VA AMALIY JIHATLARI.....</b>	<b>270</b>
<b>Abidjonov Nodirbek Odiljon o‘g‘li</b>	
<b>INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDAGI ILG‘OR XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....</b>	<b>277</b>
<b>Rajabov Alibek Xushnodbekovich</b>	
<b>O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORIDA YASHIL SUG‘URTA KONSEPSIYASI: ZARURAT, JORIY HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....</b>	<b>285</b>
<b>Zoyirov Laziz Subxonovich</b>	
<b>BREND QIYMATINI ANIQLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....</b>	<b>294</b>
<b>Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Odilov Akbarjon Nosirjon o‘g‘li</b>	
<b>XUSUSIY OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIM SIFATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>304</b>
<b>Gulmatov Bahodir Xabibullayevich</b>	

<b>KORXONALAR BREND QIYMATINI ANIQLASHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....</b>	<b>311</b>
<b>Maxmudov Tohirjon Olimjonovich</b>	
<b>MINTAQA TURIZM SALOHİYATINI VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR.....</b>	<b>318</b>
<b>Nasriddinov Husanbek Sadriddin o‘g‘li</b>	
<b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIYQ-OVQAT SANOATI DON MAHSULOTLARI TARMOG‘IDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUV .....</b>	<b>324</b>
<b>Dildora Kurbanova</b>	
<b>XALQARO SAVDONING SIRKULAR IQTISODIYOT TAMOYILLARIGA UYG‘UNLASHUVIDA ASOSIY TENDENSIYALAR.....</b>	<b>333</b>
<b>Muratova Shohista Nimatullayevna</b>	
<b>QISHLOQ XO‘JALIGI KLASTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....</b>	<b>342</b>
<b>Yuldasheva Dildora Kamiljan qizi</b>	
<b>KOMPANIYALARDA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARNI YAXSHILASHDA XODIMLAR SALOHİYATINING O‘RNI.....</b>	<b>350</b>
<b>Sattarov Shuxrat Abug‘affarovich</b>	
<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>355</b>
<b>O‘rozov Azamat Otaboyevich</b>	
<b>KIMYO SANOATI KORXONALARIDA RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI KPI VA ROI INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH.....</b>	<b>363</b>
<b>Muminova Dildora Dilshadovna</b>	
<b>HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT THROUGH INVESTMENT: INTERNATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES .....</b>	<b>371</b>
<b>Akhmadaliyeva Nikholakhon</b>	
<b>MILLIY IQTISODIYOTNING TASHQI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHGA YONDASHUVLAR.....</b>	<b>378</b>
<b>Jalolov Bekzod Sherzod o‘g‘li</b>	
<b>“DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI” TOIFASIGA YONDASHUVLARNING PAYDO BO‘LISHI VA EVOLYUTSIYASI .....</b>	<b>384</b>
<b>Karimov Javlon Ko‘ziyevich</b>	
<b>ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) TAMOYILLARINI DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA JORIY ETISH.....</b>	<b>395</b>
<b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>	
<b>QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR.....</b>	<b>405</b>
<b>Achilov Ilmurad</b>	
<b>INVESTITSION SALOHİYATNI OSHIRISH ORQALI MINTAQALARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI .....</b>	<b>415</b>
<b>Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich</b>	
<b>“YASHIL IQTISODIYOT” TAMOYILLARI ASOSIDA IQTISODIY XAVFSIZLIK SOHASIDA BOSHQARUV QARORLARINI ASOSLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....</b>	<b>424</b>
<b>Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o‘g‘li</b>	
<b>O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....</b>	<b>433</b>
<b>Haqberdiyev Bekzod Uktamovich</b>	
<b>O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA‘MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....</b>	<b>444</b>
<b>Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi</b>	
<b>TRANSPORT TIZIMLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....</b>	<b>453</b>
<b>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o‘g‘li</b>	

<b>MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI .....</b>	<b>459</b>
<b>Xusanova Gavhar</b>	
<b>O‘ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH FARAVONLIGI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI VA ULAR DINAMIKASI TAHLILI.....</b>	<b>467</b>
<b>Atayev Jahongir Erkinovich</b>	
<b>СОВРЕМЕННАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА РАЗВИТИЕ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА .....</b>	<b>476</b>
<b>Исраилов Рустамбек Ибрагимович</b>	
<b>REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH BO‘YICHA XORIY TAJRIBASI VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH YO‘NALISHLARI.....</b>	<b>487</b>
<b>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</b>	
<b>O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAHOLASH VA BOSHQA TUZILMALARNING O‘ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....</b>	<b>496</b>
<b>Rixsimbayev Odiljon Kabildjanovich</b>	
<b>MINTAQAVIY RIVOJLANISH VA SANOAT KORXONALARINI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....</b>	<b>505</b>
<b>Nuritdinov Botir Kodirxanovich</b>	
<b>INVESTITSIYALAR VA ULARDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....</b>	<b>517</b>
<b>Isakov Axmadali Esanbaevich</b>	
<b>KORXONALARNI BUDJETLASHTIRISH ASOSIDA BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBALARI.....</b>	<b>525</b>
<b>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</b>	
<b>IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO‘YICHA JORIY MEKANIZMLARNING TAHLILI .....</b>	<b>537</b>
<b>Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich</b>	
<b>TASHABBUSLI BYUDJETLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARIGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR HAMDA ERISHILGAN NATIJALAR TAHLILI.....</b>	<b>545</b>
<b>Xamidov Xabibullo Xikmatulla o‘g‘li</b>	
<b>ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL MARKETING OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.....</b>	<b>553</b>
<b>Sadikov Shokhrukh Shukhratovich</b>	
<b>INVESTITSIYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>558</b>
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
<b>TRANSFORMATSİYALASH SHAROITIDA TURIZM SOHASIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV MEKANIZMLARINI SHAKLLANTIRISH .....</b>	<b>566</b>
<b>Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna</b>	
<b>MINTAQALAR KESIMIDA INNOVATSION SALOHİYAT NOMUTANOSIBLIKLARINING SABABLARI VA EKONOMETRIK TAHLILI.....</b>	<b>576</b>
<b>Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich</b>	
<b>MINTAQAVIY SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI.....</b>	<b>586</b>
<b>Ochilov Akram Odilovich, Ro‘ziqulov Jamshid Ulug‘bek o‘g‘li</b>	
<b>SUG‘URTA INSTITUTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA UNING IQTISODIY KO‘RSATKICHLARGA TA‘SIRI.....</b>	<b>594</b>
<b>Sherov Sanjar Radjabovich</b>	

## O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA ATROF MUHIT MUHOFAZASINI TA’MINLASH MAQSADIDA KICHIK BIZNES VA YASHIL LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

**Uskenbayeva Dilnoza Bakhodir qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,  
Iqtisodiyot fakulteti, iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0002-9229-1604

E-mail: [uskenbaeva\\_d@nuu.uz](mailto:uskenbaeva_d@nuu.uz)

### Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida pul-kredit siyosati vositalarini “yashil” kreditlar va investitsiyalar bilan uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu borada O‘zbekiston va xorij tajribalari, amaliy tavsiyalar hamda prognozlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, tijorat banklari, maqsadli refinas, inflyatsiya, barqaror moliya, ekologik moliyalashtirish, davlat rejali dasturlari, pul-kredit siyosati, iqtisodiy barqarorlik.

### Аннотация

В статье анализируются вопросы интеграции инструментов денежно-кредитной политики с «зелёными» кредитами и инвестициями в целях обеспечения финансовой стабильности и охраны окружающей среды в Узбекистане. Кроме того, приведены зарубежный и отечественный опыт, практические рекомендации и прогнозы по данной тематике.

**Ключевые слова:** зелёная экономика, коммерческие банки, целевое рефинансирование, инфляция, устойчивые финансы, экологическое финансирование, государственные программные проекты, денежно-кредитная политика, экономическая устойчивость.

### Abstract

The article analyzes the issues of integrating monetary policy instruments with “green” loans and investments to ensure financial stability and environmental protection in Uzbekistan. It also presents international and domestic experiences, practical recommendations, and forecasts in this area.

**Keywords:** green economy, commercial banks, targeted refinancing, inflation, sustainable finance, environmental financing, state development programs, monetary policy, economic stability.

### KIRISH

Yashil iqtisodiyot tushunchasi ilk bor 1972-yilda Stokgolm shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha konferensiyasida ekologik jihatdan barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘shish jarayonlarini uyg‘unlashtirish zarurati sifatida ilgari surilgan. Mazkur konsepsiya 1992-yilda Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan “Atrof-muhit va taraqqiyot” sammitida yanada kengaytirilib, global iqtisodiyotning yangi paradigmasi sifatida e’tirof etildi. Hozirgi kunda yashil iqtisodiyot insoniyat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, rivojlangan va

rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning ustuvor yoʻnalishlaridan birini tashkil etadi.

Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda ekologik barqarorlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va “yashil” investitsiyalarni kengaytirish davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, Prezidentning 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4477-son qarori bilan tasdiqlangan “2019–2030-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining Yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi” hamda 2022-yil 2-dekabrda PQ–436-son qarori orqali “2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga oʻtish islohotlari samaradorligini oshirish” chora-tadbirlari belgilab berildi. “Yashil makon” milliy loyihasi doirasida esa koʻp yillik daraxt ekish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha tizimli ishlar yoʻlga qoʻyilgan.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash maqsadida pul-kredit siyosatini modernizatsiya qilish, inflyatsiyani 5 foiz darajagacha pasaytirish va barqaror moliyaviy tizimni shakllantirish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy oʻsishni jadallashtirish bilan bir qatorda, ekologik xavfsizlikni taʼminlash, ijtimoiy masʼuliyatni kuchaytirish va yashil moliyaviy instrumentlarni keng joriy etish dolzarb strategik vazifaga aylanmoqda.

Ushbu maqolaning ilmiy maqsadi — Oʻzbekistonda bank-kredit tizimi vositasida yashil iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini, jumladan, yashil kreditlar, ESG (Environmental, Social, Governance) standartlarini joriy etish hamda maqsadli refinas vositalarini iqtisodiy barqarorlik bilan uygʻunlashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, jahon tajribasini mahalliy sharoit bilan solishtirish asosida “yashil” moliyalashtirishning samaradorligini baholash, uning inflyatsiyaga, moliyaviy sektor barqarorligiga va milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga taʼsirini aniqlash ham tadqiqotning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Natijada maqola Oʻzbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amaliyotga joriy etishda bank sektorining rolini kuchaytirish, moliyaviy vositalarni ekologik ustuvorliklar bilan uygʻunlashtirish hamda uzoq muddatli barqaror iqtisodiy oʻsishning ilmiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda foydalanilgan ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy siyosatni shakllantirishda asos boʻluvchi ikki yirik makroiqtisodiy yoʻnalish — monetarizm va keynschilik yondashuvlari keng yoritilgan. Monetarizm tarafdorlari fikricha, iqtisodiy oʻsish va inflyatsiya jarayonlarini tartibga solishning eng muhim omili — bu pul massasi ustidan qatʼiy nazoratni oʻrnatishdir. Mashhur amerikalik iqtisodchi Milton Fridman taʼkidlaganidek, *“inflyatsiya doimo va har qanday sharoitda pul massasining ortishi bilan bogʻliq jarayondir”*. U oʻz asarlarida iqtisodiy muvozanatni saqlash uchun pul emissiyasining hajmini cheklash zarurligini, inflyatsiyani qisqa va uzoq muddatli davrda aynan pul taklifini tartibga solish orqali jilovlash mumkinligini asoslab bergan.

Keynschilik esa buning aksiga, iqtisodiy jarayonlarda davlatning faol ishtirokini muhim deb biladi. Ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns 1936-yilda yozgan “Ish



o‘rinlari, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida davlat xarajatlari va valyuta siyosatini o‘zgartirish orqali yalpi talabni boshqarish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlatning investitsion xarajatlarni oshirishi yoki kamaytirishi inflyatsiya va bandlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aynan shu yondashuv iqtisodiy inqiroz sharoitlarida ish o‘rinlarini saqlab qolish, ishlab chiqarish hajmini tiklash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

2008-yilgi global moliyaviy inqiroz davrida AQSh Federal Rezerv tizimi raisi Ben Bernanke tomonidan amalga oshirilgan kengaytirilgan monetar siyosat choralari — iste’mol kreditlarini oshirish, foiz stavkalarini pasaytirish va milliy qarzni ko‘paytirish — misol bo‘la oladi. Ushbu siyosat qisqa muddatda iqtisodiy faollikni qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa-da, inflyatsion bosimni kuchaytirgani bois iqtisodchilar o‘rtasida bahsli munozaralarga sabab bo‘lgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotida ham mahalliy olimlar — A. Arifov, B. Xodiev, R. G‘ulomov va boshqalar — makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda pul-kredit hamda fiskal siyosatning rolini chuqur o‘rganmoqdalar. Masalan, Arifov A. (2020) o‘z tadqiqotida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda faol pul-kredit choralari joriy etish zarurligini ta’kidlagan bo‘lsa, Xodiev B. (2021) davlat byudjeti xarajatlari va mudofaa sohasiga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning iqtisodiy faollikka ta’sirini tahlil qilgan.

Shuningdek, xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni alohida e’tirof etilgan. Jahon banki hisobotlarida qayd etilishicha, *“O‘zbekistonda yashil moliyani rivojlantirish yo‘lida davlat va xususiy sektor faolligi ortib bormoqda”*. Misol tariqasida, Biznesni rivojlantirish banki va Ipoteka kompaniyasi tomonidan “yashil” obligatsiyalar chiqarilib, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa mamlakatda ekologik moliyaviy instrumentlarning shakllanayotganidan dalolat beradi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iqtisodiy tahlilning zamonaviy yondashuvlari asosida statistik, taqqoslash, guruhlash, tahlil va sintez, abstrakt-mantiqiy, analitik hamda iqtisodiy-matematik usullar qo‘llanildi. Ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, iqtisodiy o‘shish, pul-kredit siyosati va inflyatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YAIM), asosiy foiz stavkasi, inflyatsiya darajasi kabi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rganildi.

Natijada, muammolarni tezkor aniqlash va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beruvchi tahliliy model yaratildi. Shuningdek, olingan ma’lumotlar asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bank tizimi vositalarining samaradorligi, ESG standartlarini joriy etish darajasi va ularning inflyatsion jarayonlarga ta’siri chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot yakunida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, O‘zbekistonning yashil moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG – Sustainable Development Goals) nafaqat makroiqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarini, balki ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ham o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, zamonaviy pul-kredit siyosati nafaqat inflyatsiyani jilovlash va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish vositasi, balki keng ma‘noda inklyuziv va “yashil” iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi mexanizm sifatida ham qaralmoqda.

Markaziy bank moliya sektorining asosiy regulyatori sifatida yashil moliyalashtirishni rag‘batlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shishga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Buning uchun tarmoq banklariga ekologik mezonlarga javob beruvchi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, toza energiya yo‘nalishidagi investitsiyalarni imtiyozli qayta moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, hamda bank faoliyatida Environment, Social, Governance (ESG) tamoyillariga rioya etishni majburiy talab sifatida belgilash muhimdir. Bunday chora-tadbirlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)dan 7-maqsad (toza va arzon energiya) va 13-maqsad (iqlim bo‘yicha chora-tadbirlar)ga erishishda moliyaviy sektorning rolini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyot yo‘nalishidagi loyihalarga moliyaviy rag‘batlar yaratish iqtisodiy samaradorlik bilan birga, bozor va ijtimoiy foyda nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda davlatga tegishli moliya institutlari mamlakatdagi umumiy kredit hajmining taxminan 70 foizini ajratadi va bu resurslarning muayyan qismini toza energiya, qayta tiklanuvchi manbalar, hamda barqaror qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlariga yo‘naltirish imkoniga ega.

Prezident tashabbusi bilan tashkil etilgan “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” doirasida amalga oshirilayotgan mikroloyihalarning 35 foizi ekologik me‘yorlarga mos “yashil” loyihalarga to‘g‘ri keladi. Bu esa mamlakatda ekologik mas‘uliyatli tadbirkorlikni rag‘batlantirish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini bermoqda.

2024-yil sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston moliyaviy bozorida birinchi “yashil” obligatsiyalar muomalaga kiritildi. Ushbu obligatsiyalarni Ipoteka qayta moliyalashtirish kompaniyasi chiqargan bo‘lib, ular milliy yashil standartlarga to‘liq moslashtirilgan. Mazkur moliyaviy instrumentlar xorijiy investorlar e‘tiborini jalb etib, energetika, uy-joy kommunal xo‘jaligi va transport infratuzilmasi kabi sohalarda ekologik jihatdan samarali loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qilmoqda.

Bunday mexanizmlar nafaqat moliya oqimlarini iqtisodiyotning ekologik samarali tarmoqlariga yo‘naltirish, balki xorijiy kapitalni jalb qilish, milliy kredit reytingini yaxshilash va investitsion muhitni barqarorlashtirish imkonini beradi. Shu tariqa, yashil moliyalashtirishning joriy etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror va past-uglerodli rivojlanishiga zamin yaratadi.

O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” (2019–2030) doirasida 2030-yilgacha quyidagi asosiy maqsadlar belgilangan:

- energiya iste‘molining kamida 30 foizini qayta tiklanuvchi manbalardan ta‘minlash;


- suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish;
- chiqindilarni qayta ishlash tizimini 40 foizga yetkazish;
- ekologik toza transport ulushini 25 foizgacha oshirish.

So‘nggi yillarda respublikada quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya tejamkor korxonalar, qayta tiklanuvchi resurslarga asoslangan ishlab chiqarish kabi ko‘plab yashil loyihalar amalga oshirila boshlandi. Biroq ularning hajmi va moliyaviy ta‘minoti hali ham yetarli darajada emas. Shu sababli, tijorat banklari tomonidan maqsadli moliyalashtirish va yashil kredit liniyalarini kengaytirish zarur.

Respublika moliya tizimida yashil kreditlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi (1-rasm):

1. Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan korxonalar loyihalari;
2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish;
3. Atrof-muhitni muhofaza qilish infratuzilmasini rivojlantirish;
4. Barqaror qishloq xo‘jaligi va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish;
5. Ekologik transport tizimlarini kengaytirish;
6. Chiqindilarni qayta ishlash va resurs aylanishini ta‘minlash;
7. Yashil qurilish va energiya samarali uy-joylar qurilishi.

Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar O‘zbekiston iqtisodiyotida ekologik mas‘uliyat, moliyaviy barqarorlik va innovatsion rivojlanish o‘rtasida muvozanatni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, yashil kreditlar milliy iqtisodiyotning yangi bosqich — barqaror o‘shish va ekologik muvozanat davriga o‘tishini ta‘minlovchi muhim moliyaviy vosita sifatida shakllanmoqda.



**1-rasm. O‘zbekistondagi yashil kreditlar maqsadi<sup>1</sup>**

Yuqoridagi rasm tahlilidan xulosa qiladigan bo‘lsak, yashil kredit mexanizmlari orqali kichik tadbirkorlik subyektlariga ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni joriy etish uchun qulay moliyaviy imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, quyosh panellari, shamol generatorlari, biogaz uskunalari, shuningdek, energiya tejamkor isitkichlar va qozonlar xarid qilish uchun imtiyozli foiz stavkalari asosida kredit olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa, o‘z navbatida, energiya sarfini kamaytirish, ishlab


<sup>1</sup> Шерхонов И.А. Банкларнинг яшил иқтисодиётдаги роли. Қурилиш ва таълим илмий журнали 4-жилд, 1-сон. ISSN 2181-3779. 2025.

chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda kichik biznes subyektlarining ekologik mas’uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasida kichik va o‘rta biznes doirasida amalga oshirilayotgan yashil loyihalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Ularning aksariyati moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning aynan yashil kreditlar shaklida taqdim etilayotgan mexanizmlari orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatda yashil kreditlarning hajmi va ulushi 2020–2024-yillar oralig‘ida sezilarli o‘shish tendensiyasini namoyon etmoqda (2-rasm).

Bu jarayon, bir tomondan, barqaror iqtisodiy o‘shish va energiya xavfsizligini ta’minlashga, ikkinchi tomondan esa uglerod izini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha milliy majburiyatlarni bajarishga xizmat qilmoqda. Shu orqali, kichik tadbirkorlik sektorida innovatsion va ekologik toza texnologiyalarning joriy etilishi jadallashib, mamlakatda “yashil iqtisodiyot” madaniyati shakllanmoqda.

Natijada, yashil kreditlar tizimi O‘zbekiston iqtisodiyotida mintaqaviy energetik mustaqillikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, hamda barqaror rivojlanishning moliyaviy poydevorini mustahkamlashda muhim rol o‘ynamoqda.



**2-rasm. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznesda yashil loyihalar va tijorat banklari ajratgan yashil kreditlar soni (2018–2024)<sup>1</sup>**

Yuqoridagi rasm ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, kichik va o‘rta biznesning yashil loyihalarda faolligi hamda asosiy moliya manbasi sifatida tijorat banklarining ishtirokiga guvoh bo‘lish mumkin. 2018–2024-yillar davomida yashil loyihalar soni deyarli 6 baravar oshgani va ularning asosiy qismi, aniqrog‘i 70–80 foiz qismi tijorat banklari kreditlari tomonidan moliyalashtirilgani kuzatiladi. Shunday ekan, tijorat banklarini ushbu mexanizm faoliyatida samarali qo‘llash kichik va o‘rta biznesni, natijada iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Ushbu maqsad doirasida xorij tajribasiga nazar solsak, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya va Fransiyada “Targeted Refinancing Operations – TRO” (maqsadli qayta moliyalashtirish operatsiyalari) mexanizmi bir necha yillar davomida “yashil” rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

### 1-jadval

#### Yashil kreditlarni qayta moliyalashtirish bo‘yicha xorij tajribasi samaralari<sup>1</sup>

Mamlakat / Markaziy bank	Mexanizm nomi yoki dasturi	Asosiy shartlar	Samaralar / Natijalar
Xitoy	PBOC – Carbon Emission Reduction Facility (CERF) (2021-yildan joriy qilingan)	Tijorat banklariga yashil loyihalar uchun kreditlar berishda: qarzlarning 60% gacha qismini qayta moliyalashtirish; foiz stavkasi 1,75% (bir yillik) etib belgilangan	2025-yilga kelib, ushbu dastur doirasida taxminan 123 mlrd AQSH dollar mablag‘ karbon chiqindilarini kamaytiruvchi loyihalarga yo‘naltirilgan. Natijada 215 mln tonna CO <sub>2</sub> chiqindilarining oldi olingan.
Yevropa hududi (ECB)	Targeted Longer-Term Refinancing Operations – TLTRO 3 dasturi	O‘zgaruvchan stavka; qayta moliyalashtirish resurslari banklar uchun arzon bo‘lib, ularning umumiy kredit portfeli orqali real sektorni kreditlashni rag‘batlantiradi	Real sektorga ajratilgan kredit hajmi oshgan; yashil kreditlarning 80% dan ortig‘i yuqori chiqindili kompaniyalarga yo‘naltirilgan.
ASEAN+3 mintaqasi	Bir nechta markaziy banklarda yashil maqsadli qayta moliyalashtirish liniyalari	Kredit shartlarida past stavka, uzoq muddat, kolateral talablari yengil	Kichik va o‘rta korxonalarda yashil hamda energiya tejankor loyihalar soni ortgan, kredit xarajatlari kamaygan. Biroq raqamlar muntazam emas va ta’sir darajasi mamlakatlar kesimida farq qiladi.

Yuqoridagi jadval tahlilidan ko‘rinadiki, Xitoyda CERF dasturi tijorat banklariga past stavkada resurs taqdim etgani sababli kreditlarning arzonlashuviga olib kelgan. Yevropada esa ushbu mexanizm real sektorga kreditlash hajmini oshirgan bo‘lsa-da, “yashil” komponent nisbatan past bo‘lgan, ya’ni ko‘plab imtiyozli kreditlar hali ham yuqori chiqindili kompaniyalarga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston tajribasida esa tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkalariga cheklov o‘rnatish va qayta moliyalashtirish imkoniyatlarini amaliyotga joriy etish mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yuqori salohiyatga ega. Bunday mexanizmlar banklar uchun moliyalashtirish xarajatlarini kamaytiradi, uzoq muddatli resurs manbalarini yaratadi va shu bilan birga ekologik barqarorlik hamda makroiqtisodiy muvozanatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatda kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish, yashil iqtisodiyotga yo‘naltirilgan sarmoyalarni rag‘batlantirish maqsadida, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari loyihalarining

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

BHMning 1500 baravarigacha bo'lgan qismini moliyalashtirishda tijorat banklari kredit stavkalarining eng yuqori chegarasini Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklari orqali kichik biznes va yashil iqtisodiyot loyihalariga ajratilgan kreditlarni qayta moliyalashtirish O'zbekistonda dolzarb iqtisodiy siyosat yo'nalishi hisoblanadi. 2024–2025-yillardagi hukumat qarorlari va dasturlari respublikada bu borada qulay huquqiy infratuzilmani yaratdi. Biroq mazkur mexanizmlarni samarali amalga oshirish uchun kreditlash mezonlari, moliyaviy kafolatlar hamda Markaziy bankning pul-kredit siyosati o'zaro muvofiq ishlashi zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tajriba asosida maqsadli qayta moliyalashtirish va qo'shimcha kafolat mexanizmlari yordamida kichik biznes hamda yashil loyihalarga sarmoya oqimini kuchaytirish orqali iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni bir vaqtning o'zida oshirish mumkin. Natijada quyidagi ijobiy samaralarga erishiladi:

Birinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlariga asosiy stavkadan oshmaydigan arzon kreditlar ajratilishi ularni yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi loyihalarga faolroq investitsiya kiritishga rag'batlantiradi. Bu esa iqtisodiyotning strukturaviy modernizatsiyasini tezlashtirib, ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energetika, kam energiya sarfli texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi loyihalar ko'payadi va mamlakatning barqaror o'sish modeli shakllanadi. Prezidentning 2022-yildagi PQ-436-son qarorida 2030-yilgacha YAIM birligiga nisbatan issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga kamaytirish maqsadi belgilangan bo'lib, mazkur mexanizm ushbu strategik maqsadni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda muayyan miqdordagi iqtisodiy o'sish va pul massasining o'zaro mutanosibliigi ta'minlanadi. Ya'ni, pul muomalasining kengayishi bevosita real sektor o'sishi bilan bog'lanadi va ortiqcha inflyatsiya xavfi kamayadi. Tijorat banklarining kredit stavkalarini Markaziy bankning asosiy stavkasi doirasida cheklash orqali kreditlar iqtisodiyotga nazorat ostida yo'naltiriladi. Natijada Markaziy bank inflyatsiyaning barqaror, maqsadli darajasini saqlash uchun zarur pul-kredit sharoitlarini yaratadi.

Uchinchidan, arzon va uzoq muddatli kreditlar evaziga kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslar hajmi oshadi. Mazkur subyektlar mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo'lib, YAIMning 53–55 foizini, shuningdek, bandlikning 75 foizgacha bo'lgan qismini ta'minlamoqda. Shunday ekan, ularning faoliyatini kengaytirish inklyuziv va barqaror iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, aholining daromad manbalarini ko'paytiradi va hududlarda ekologik toza ishlab chiqarish loyihalarining kengayishiga olib keladi.

To'rtinchidan, kredit siyosatini mazkur yo'nalishda takomillashtirish moliyaviy resurslarni zamonaviy innovatsion loyihalarga yo'naltirish imkonini yaratadi. Bu esa barqaror va oldindan bashorat qilinadigan iqtisodiy muhitni shakllantirib, xorijiy investitsiyalarni yashil sektorga jalb etishni osonlashtiradi. Moliya oqimlarining milliy

iqlim maqsadlari bilan uyg'unlashuvi innovatsiyalarni jadallashtiradi, yangi investorlar uchun imkoniyatlar yaratadi va iqtisodiyotda yangi o'sish nuqtalarini shakllantiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Friedman M. The Counter-Revolution in Monetary Theory. – London: Aldine Publishing Company, 1970.
2. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
3. Арифов А. Макроиктисодий барқарорлик ва пул-кредит сиёсати – Тошкент. Иқтисодиёт 2020
4. Ходиев Б. Иқтисодий ўсиш назариялари ва амалиёти – Тошкент. Молия 2018
5. Шерхонов И.А. Банкларнинг яшил иқтисодиётдаги роли. Курилиш ва таълим илмий журнали 4-жилд, 1-сон. ISSN 2181-3779. 2025.
6. Маманазаров А. Ўзбекистонда яшил иқтисодиётга ўтишнинг жорий ҳолати таҳлили. Қўқон университети хабарномаси 116-119; июн 2024
7. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Пул-кредит сиёсати мақсади ва асосий ставка [Электрон ресурс] // cbu.uz. – 2024. – Манба: <https://cbu.uz/> (қидирилган сана: 10.10.2024).
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти матбуот хизмати. “Макроиктисодий барқарорлик ва иқтисодий ривожланishni ta'minlash” видеоселектори – 2024. (16 янв. 2024, onlayn) [Интернет-ресурс]. – Манба: <https://president.uz/> (қидирилган сана: 20.10.2024).
9. Yuz.uz. «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalda qanday bo'ladi? – 2022. (9 февр. 2022) [Интернет-ресурс]. – Манба: <https://yuz.uz/> (қидирилган сана: 15.10.2024).
10. “BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI”. BRB ESG-BRB [Электрон ресурс] // brb.uz. – 2025. – Манба: [https://brb.uz](https://brb.uz/) (қидирилган сана: 17.10.2024).
11. World Bank. “Экологизация” государственных средств Узбекистана для борьбы с изменением климата [Electronic resource]. – The World Bank, 2024. – Манба: <https://www.vsemirnyjbank.org> (қидирилган сана: 20.10.2024).
12. [https://www.researchgate.net/publication/383564187\\_Green\\_Credits\\_A\\_Bibliometric\\_Analysis\\_of\\_Publications\\_in\\_the\\_Web\\_of\\_Science\\_Article\\_Information](https://www.researchgate.net/publication/383564187_Green_Credits_A_Bibliometric_Analysis_of_Publications_in_the_Web_of_Science_Article_Information)



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

<b>Muharrir:</b>	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
<b>Ingliz tili muharriri:</b>	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
<b>Rus tili muharriri:</b>	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
<b>Musahhah:</b>	Karimova Shirin Zoxid qizi
<b>Sahifalovchi va dizaynerlar:</b>	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

## 2025-yil, sentyabr, 9-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**